



# PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

2(2)  
—  
2022



## MUNDARIJA

<b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA .....</b>	<b>6</b>
Омилхон ИСМАИЛОВ, Александр ПОЛОННИКОВ, Мухиддин БАФАЕВ. Инновационно-ориентированное педагогическое образование Республики Узбекистан: стратегия и тактика развития .....	6
Shaxlo NURULLAYEVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy moslashtirish mexanizmlari.....	12
Nargiza DILOVA, Kimyoxon RAJABOVA. O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo'llashning ahamiyati .....	19
Jetkerbay OTEPBERGENOV. Talabalarning murakkab o'quv materiallarini o'zlashtirishda chizma-tasviriy modellardan foydalanish mahorati.....	22
Shabon FARMONOVA. Boshlang'ich sinflarda ta'lim mazminini yangilash va ona tili o'qitishni ijodiy tashkil etish .....	26
Ne'mat SEVINCHOV, Maftuna HALIMOVA. Pedagogik o'lchovlarning tarkibiy qismlari va ularga qo'yiladigan talablar.....	32
Умида МУРТАЗАЕВА. Особенности развития учебно-исследовательских компетенций студентов высших образовательных учреждений в условиях кредитной системы.....	38
Ixtiyor XOLIQOV. Bo'lajak o'qituvchining asosiy kompetentligini rivojlantirish .....	43
Xasan SIDDIKOV. Oliy ta'limda tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishning innovatsion shakllari.....	46
Muattar ABDULLAXO'JAYEVA. Zamonaviy o'qituvchining pedagogik kompetentligini rivojlantiriish.....	50
Perdexan SALIYEVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan ayrim muammolar va yechimlar .	52
<b>MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM .....</b>	<b>55</b>
Shuhrat NE'MATOV, Nargiza MIRYUSUPOVA. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining kvalitologik kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari .....	60
Асрор ҚОСИМОВ. Бошлангич таълимда ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини ташкил этиш – долзарб педагогик муаммо сифатида .....	62
Maftuna MAMEDOVA. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola shaxsining rivojlanishida tarbiyaning roli.....	67
Dildora OMONOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirish metodik muammo sifatida.....	70
Manzura KASIMOVA. Maktabgacha ta'limda jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazishda labaratoriya xonalarini tashkil etish .....	74
Gulzoda ERGASHEVA. Steam ta'lim texnologiyasi asosida maktabgacha yoshdag'i bolalarga ta'lim-tarbiya berish imkoniyatlari.....	78
Азиза ХУСЕНОВА.Моделирование обучения родному языку путём проектирования образования .....	82
Шакаржон ҚЎЧҚОРОВА. Бошлангич синф ўқувчиларида таянч компетенцияларни шакллантириш долзарб методик муаммо сифатида .....	90
Дилшод ДАВРОНОВ. Бошлангич синф ўқиш дарсларида бадиий матн устида ишлашда адабий тушунчаларни шакллантиришнинг илмий-назарий асослари .....	95
Sobirjon ISMATOV. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish metodikasi .....	100
<b>FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH .....</b>	<b>105</b>
Qahramon TO'XSANOV. "Masnaviyi ma'naviy"ning o'zbek adabiyotiga ta'siri.....	105
Mexriniso ABUZALOVA, Shahnoza ISLOMOVA. Tibbiy tili va tibbiy matnlarning psixolingistik xususiyatlari .....	111
Илона ИСРАИЛОВА. Эффективность обучения медицинскому английскому языку при формировании коммуникативных навыков посредством аутентичных фильмов.....	117
Intizor JUMANIYOZOVA. Abdulla Oripov she'riyatida falsafiy-intellektuallik va ekspressivlikning ifodalananishi.....	124
<b>ANIQ VA TABIIY FANLAR .....</b>	<b>127</b>
Mirzohid DAMINOV, Sabohat HALIMOVA. O'zbekiston, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston umumiy o'rta ta'lim maktablari 7-sinf fizika darsliklarining qiyosiyl tahlili .....	127

## OLIY TA'LIMDA TARBIYAVIY JARAYONLARNI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION SHAKLLARI

*Ushbu maqolada oliy ta'linda tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishning innovatsion shakllari, yoshlar tarbiyasida ma'naviy fazilatlarni shakllantirish va bu jarayonda mutafakkirlarimizning ma'naviy merosidan, shuningdek, ma'naviy qadriyatlarimizdan foydalanish va ularni yoshlar ongiga singdirishning ahamiyati haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** innovatsion texnologiya, kasbiy mahorat, ma'naviy meros, ma'rifiy tarbiya, ma'naviy tafakkur, tizimli yondashuv, xulqiy fazilat, imuminsoniy qadriyatlar.

*В данной статье речь идёт об инновационных формах организации воспитательных процессов в высшем образовании, о формировании духовных качеств в воспитании молодёжей и о важности использования в этом процессе духовного наследия наших мыслителей, а также наших духовных ценностей и внедрения их в сознание молодежей.*

**Ключевые слова:** инновационная технология, профессиональное мастерство, духовное наследие, просвещение, духовное мышление, системный подход, поведенческие качества, общечеловеческие ценности.

*In this article, there are given innovative forms of organizing educational processes in higher education, the formation of spiritual qualities in the upbringing of young people and the importance of using in this process the spiritual heritage of our thinkers, as well as our spiritual values and introducing them into the consciousness of young people.*

**Keywords:** innovative technology, professional skills, spiritual heritage, enlightenment, spiritual thinking, systematic approach, behavioral qualities, universal values.

**Kirish.** O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iborat. Aynan ana shu maqsadga erishish uchun Prezidentimiz rahnamoligida yangi davrda yashaydigan, yangicha fikrlaydigan, yangi ishlab chiqarish, ijtimoiy sharoitlarda faoliyat ko'rsatadigan, zamonaviy kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlashdek muhim vazifalar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarini boshqarish sohasida har bir rahbar xodimlar va professor-o'qituvchilar normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan o'z huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini, shuningdek, o'zi faoliyat yuritayotgan oliy ta'limning odob-axloq kodeksi bilishi lozimdir. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Ta'lim to'g'risidagi qonun, Kadrlar taylorlash Milliy dasturi, farmonlar, qarorlar va buyruqlar kabi normativ hujjatlar qo'llanilmoqda.

**Asosiy qism.** Ma'lumki, Kadrlar taylorlash Milliy tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor

yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan yoshlarga oid davlat siyosatini takomil-lashtirish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bir qancha muhim hujjatlar qabul qilindi, amaliy ishlar yo'Iga qo'yildi, muayyan natijalarga erishildi. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2019-yilning 19-mart kuni ilgari surgan 5 ta muhim tashabbusi doirasida yoshlarimizga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga urg'u berilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarini innovatsion shaklda tashkil etish, avvalo, o'quv jarayonining mazmuni, tashkiliy shakllari, o'qitishning turli xil usul va metodlari, o'qituvchining tajribasi, mahorati, izlanishlari, yangilik yaratish salohiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyatimizning har jihatdan sog'lom, barkamol yoshlarni shakllantirishga bo'lgan talab va ehtiyoji tufayli bugungi ta'lim-tarbiya maqsadlari innovatsion texnologiyalarining izchil sur'atda o'sib borishini ta'minlashga qaratilgandir. Innovatsion

texnologiya tamoyillari umumididaktik tamoyillar, ya'ni onglilik, faollik, ko'rgazmalilik, nazariyaning amaliyat bilan bog'liqligi, ta'limgar tarbiyaning uzviyiligi hamda uzlusizligi, bilimlar puxtaligi va boshqalar bilan uyg'unlikda amal qiladi. Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Barkamol shaxsnini tarbiyalash barcha davrlarda ham muhim ijtimoiy talablardan biri bo'lib kelgan, ammo bugungi sifat o'zgarishlar ro'y berayotgan bir davrda bu masalaning dolzarbliyi yanada kuchayib talab ortib bormoqda.

Bugungi kunda eng muhim vazifalardan biri bu talabalarni axloq talablariga muvofiq tarbiyalashga tomon yo'naltirilgandir. Har bir talaba o'zini-o'zi tarbiyalashning maqsadini aniqlab olishiga yordamlashmoq kerak. Buning uchun har bir o'quvchining ehtiyoj va qiziqish darajasini o'rganish, ularga o'z ehtiyojlarini jamiyat manfaatlariga, xal etilayotgan ijtimoiy vazifalarga bo'ysindirishga, o'z jamoasi sharoitida vujudga kelayotgan ehtiyojlarni ko'ra olishga va nihoyat ularni hal qilishning aniq shart-sharoiti va haqiqiy imkoniyatlarni topa olishiga ko'maklashmoq zarurdir.

Ma'lumki, ta'limgar va tarbiya uyg'unligi milliy taraqqiyotga erishishning asosiy kafolatlaridan biridir. Jamiyat taraqqiyoti, milliy farovonlik hamisha yosh avlodning ta'limgar tarbiyasi, zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan yangi kadrlar, ularning yuksak malakasi bilan bog'liq bo'lib kelgan. Bugungi kunda yoshlarimiz, ustoz olimlar to'plagan tajriba hamda ular erishgan yutuqlarga tayanib, mamlakatning ilmiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy salohiyatini yanada ko'tarish uchun kuchli mas'uliyat his qilgan holda tinmay mehnat qilib kelmoqdalar. Mamlakatimizda yangi zamon avlodini tarbiyalash, ular dunyoqarashini yangicha qadriyatlar asosida shakllantirish ishi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bunda avvalambor, ta'limga doir eng ilg'or, zamonaviy, xalqimizga xos milliy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga xos bo'lgan usullarni topish va amaliyotga joriy etish, ta'limgar va tarbiyani bir-biridan ajratmaslik va ularning o'zaro mutanosibligiga erishish an'anasiga amal qilish maqsad qilib qo'yilgan.

**Muhokamalar va natijalar.** Xalqimiz mustaqilligining asoschisi, mamlakatimizning Birinchi prezidenti I.Karimov so'zlarini bilan aytganda, «Ta'limgar tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limgar etib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi» [1, 62]. Shuningdek,

birinchi prezidentimiz o'sha asarlarida o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan chuqur ma'noli so'zlarini millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lganligi va hozir ham muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tgan edilar [1, 62].

Hozirgi kunda bizning oldimizda ulug' ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy-ma'naviy merosdan bahramand, ma'naviyati yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, o'tmishimizni yaxshi biladigan va to'g'ri baholay oladigan yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdek muhim va mas'uliyatlari vazifa turgan ekan, ta'limgar tarbiya sohasida bo'shliq yuzaga kelishiga umuman yo'l qo'ymasligimiz darkordir. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida ishlab chiqilgan va qabul qilingan «Ta'limgar to'g'risida»gi Qonun mamlakatimizda malakali kadrlar tayyorlashning yangi istiqbolli tizimini yaratishga asos bo'ldi va buning natijasida ta'limgar tarbiya ishining ijtimoiy ahamiyati va mavqeい ko'tarildi, ma'naviy yangilanishlar yuzaga keldi. Albatta, bu jarayonlar yuksak mehnat mahsuli bo'lmish ta'limgar tarbiya natijasi hisoblanadi.

Ta'limgar tarbiya jarayonining ahamiyatli tomonlaridan biri uning uyg'un holda olib borilishi bilan bog'liqdir, ya'ni oila, maktabgacha ta'limgar, maktab, oliy ta'limgar hamkorlikda yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullanishi kerak, deb hisoblaymiz.

Buyuk mutafakkirlarimiz A.Avlonyi, A.Fitratlar ta'kidlaganidek, tarbiya, avvalo, oiladan boshlanadi. Har tomonlama yetuk insonni tarbiyalashda oila birinchi o'rinda turadi. Oilan asosiy tarbiyaning o'chog'idir. Oilan har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlaydigan yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Bolaning aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, ma'naviy va moddiy tarbiyasida asosiy omil va vosita oila hisoblanadi.

Yoshlarning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o'z umri va salohiyatini bag'ishlagan allomalarimizning asarlarida sog'lom avlod tarbiyasi bilan bog'liq masalalarga alohida o'rinn berilgan.

Mashhur mutafakkir Yusuf xos Hojib aytganidek, o'g'il-qizga san'at-hunar va bilim o'rgatish kerak, toki bu fazilatlar tufayli ularning fe'l-atvorlari va yo'riqlari matlub bo'lsin (2, 94).

48 Sharq allomalari o‘z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta’lim berish, uni ma’rifatu madaniyatga yetaklash muammolariga katta e’tibor bergenlar.

Oilada bola tarbiyasi bu farzandni nafaqat jismonan, balki fikran va axloqan tarbiya qilib, kamolga yetishtirish demakdir. Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ham o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” nomli asarida tarbiyaning barcha turlariga izoh berib, aynan fikr tarbiyasi haqida quyidagilarni bildiradi: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratlik bo‘lishiga sabab bo‘ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so‘ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘lidur” (3,15).

Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat, mehnatga muhabbat, sadoqat, insonparvarlik, halollik, to‘g‘rilik kabi tuyg‘ular avvalambor oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Oila, odob-axloq va ta’lim-tarbiyaga e’tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir.

Yoshlar tarbiyasi jarayonida ularning huquqlarini kansitmaslik darkordir. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg‘ulariga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pgina Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham farzandlar ongiga yuksak insoniy fazilatlarni singdirish oila ya’ni ota-onaya zimmasida ekanligi aytib o‘tilgan. Bu jarayonda ota-onadan juda katta mas’uliyat talab etiladi. Chunki, Qori Niyoziyning ta’kidlashicha: “Hayot shuni ko‘rsatadiki, bola tarbiyasining dastlabki davrida yo‘l qo‘yilgan xatoni keyincha tuzatish mushkuldir, chunki u yosh organizmning qon-qoniga, suyak-suyagiga singib, hatto, “xronik kasal” holatiga aylanishi mumkin” (2, 94).

Mustaqillik yillarda oldimizga qo‘yilgan eng katta va murakkab vazifalardan biri, qisqa muddat ichida kadrlar tayyorlash muassasalarini yangi talablarga javob bera oladigan murabbiylar, yangi o‘quv qo‘llanmalari, dasturlar, kompyuter jihozlari bilan ta’minalash, kadrlar tayyorlashda jamiyat ehtiyojlarini aniq hisobga olish va boshqalar edi.

Hozirgi kunda biz shu davrgacha qo‘lga kiritgan yutuqlarimizni, mamlakatimizda yo‘lga qo‘yilgan hamda dunyoda rasman e’tirof etilgan yangi ta’lim tizimini faxr bilan aytishimiz mumkin. Jumladan, ta’limning hamma bosqichlarida zamonaviy xalqaro talablarga to‘la mos keladigan o‘quv dasturlari yangidan yaratildi. Eng muhim, o‘quv yurtlari va ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi, yoshlarimiz zamonaviy talablar asosida jihozlangan, barcha

shart-sharoitlarga ega o‘quv binolarida tahsil olmoqdalar.

Ta’lim muassasalarida ta’lim berish bilan birga tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazishga ham katta ahamiyat berish lozim. Talabalarning ma’naviy tafakkurini shakllantirishda universitetimizda taniqli olimlar, mashhur shaxslar, yozuvchilar, shoirlar hamda mamlakatimiz ravnaqi yo‘lida o‘zining munosib hissasini qo‘sheyotgan insonlar bilan o‘tkaziladigan uchrashuvlar muhim omil sifatida yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, talabalarni qadimiy yodgorliklar, azizlarning qadamjolari, tarixiy va adabiy muzeylar bilan tanishtirish ham ularning ma’naviy va ma’rifiy tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, o‘lkamizdagi qadimiy va navqiron Xiva shahrida joylashgan “Ichon qal’a”ga tarixiy obidalarni tomosha qildirish uchun sayohat uyushtirish, talabalarni qal’a tarixi bilan tanishtirish hamda ajdodlarimizning bizga qoldirgan madaniy merosi haqida ma’lumot berish ta’lim va tarbiyada ijobiy natijalarga erishishimizda yordam berib kelmoqda. Shu bilan birga, “Ichon qal’a” eski shahar majmuasining ko‘p sonli masjid, madrasa, minoralari va to‘rtta darvozasi bilan Yuneskoning butun jahon merosi ro‘yxatiga kiritilganligi talabalarda faxr tuyg‘usini uyg‘otadi.

Shuningdek, talabalar orasida Mehrbonlik uylariga tashrif buyurish, ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarga yordam berish ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu mehr-muhabbat va mehrbonlik tuyg‘ularini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Chunki, mehr-muruvvat barcha zamonlarda ulug‘lanib kelgan, insonlarga mehr ularish savob amallardan hisoblangan.

Bularning barchasi, albatta, talabalarning ta’limiga, ma’rifiy tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim muassasalarida olib boriladigan har bir ishdan ko‘zlangan maqsad talabalar ongiga milliy istiqol g‘oyasini singdirish, Vatanga muhabbat, do‘stlik, mehr-muhabbat, mustaqillikning qadriga yetish kabi tuyg‘ularni shakllantirishdan iboratdir.

Yoshlar tarbiyasida bizning xatolarimizdan biri, uzoq yillar davomida “uzluksiz ta’lim”ga mutanosib “uzluksiz tarbiya” yo‘lga qo‘yilmadi. Tarbiya yoshlarning ta’limdan bo‘sh vaqtida amalgal oshiriladigan qo‘simechka yuklamaga – ikkinchi darajali ishga aylandi. Buning natijasida tarbiya uzuq-yuluq jarayon bo‘lib keldi. Ta’lim muassasalarida tarbiyaviy tadbirlar ko‘rgazma uchun nomigagina yoki qandaydir ma’naviy-ma’rifiy rejalarini amalgal oshirish uchun tashkil qilinib keldi. Oqibatda jamiyatning pedagogik madaniyati pasayib, pedagoglarning, shuningdek, ota-onalarning ham tarbiyaga oid pedagogik-

psixologik bilimlari zamon talablariga javob bermay keldi.

Tarbiyatagi kamchiliklar, albatta, ta'lim sifatiga zarar ko'rsatmasdan qolmaydi. Mamlakatimizda boshlangan yuksalish davri, yangicha davrning shiddati ta'lim-tarbiyaga o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'yemoqda. Ta'lim va tarbiya sifatini oshirishning xorijiy texnologiyalari joriy qilinmoqda. Tarbiya ta'lim bilan uyg'un, shuningdek, uzlusizlikni talab qiluvchi soha. Ta'lim – bilimdon yoshlarni ko'paytiradi, tarbiya esa irodasi kuchli, vatanparvar, tadbirkor, mehr-oqibatlari yoshlarni yetishtirib beradi. Bu jarayon O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini yangilangan milliy g'oya negizida, milliy-zamonaviy, ilmiy-texnologik asosda isloq qilishni taqozo qiladi.

Bu ishlar tarbiyaga yangicha, tizimli yondashgan holda, tayanch fazilatlarni kafolatli loyihalashtirish va o'rgatishda oila, mактабгача ta'lim, umumiy o'rta ta'lim hamda oliy ta'lim muassasalarining pedagogik imkoniyatlarini to'liq ishlatib, ular orasida ilmiy-metodik hamkorlikni yangi darajaga ko'targandagina samarali natija berishi mumkin.

Yoshlar tarbiyasi haqida gapirganlarida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ham «Yosh avlodni salohiyatli kadrlar etib tarbiyalashdagi birinchi bosqich - maktab ta'limini tubdan takomillashtirish, ilmiy kadrlar va yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash» jarayonining uzlusizligini ta'minlash” – deb ta'kidlagan edilar [4.]

**Xulosa.** Yoshlarga ta'lim va tarbiya berishni yuksak darajada ta'minlash uchun bugungi kunda ta'lim muassasalariga puxta tayorgarlik ko'rgan,

o'z so'ziga ega, o'z sohasidagi bilimlarni egallash bilan birga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni yaxshi o'zlashtirgan, axborot va pedagogik texnologiyalarni yaxshi biladigan va ulardan unumli foydalananidan professor-o'qituvchilar kerak. Chunki, bugun mamlakatimizning tayanchi bo'lgan yoshlarga yangicha yondashuvlar va zamon talablaridan kelib chiqib bilim berish davlat siyosatining ustivor yunalishiga aylangan.

Zotan, innovatsion pedagogik jarayon murabbiy va o'qituvchi faoliyatining doimo o'zgarib, yangilanib, rivojlanib borishini taqozo etadi. Yangi bilimlarni muntazam egallab, takomillashtirib borish har bir pedagogning burchi bo'lish bilan birga bugungi kunda jamiyatning talabi va ehtiyojiga ham aylangan.

Yosh avlod tarbiyasida pedagogning innovatsion tayyorgarlik darajasi muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, innovatsion ta'lim-tarbiya vositasida yoshlarda ham yaratuvchilik, ijodkorlik, mustaqil fikrlash, oldiga qo'ygan maqsadiga erishish layoqatini shakllantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Pedagog faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi motivlari muhim ahamiyat kasb etadi, bu esa pedagog shaxsi kreativligining faolligini shakllantirish imkonini beradi. Demak, ta'lim-tarbiya jarayonlarini innovatsion shaklda tashkil etishda va ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda, yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlashda, ta'lim tizimiga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasining bilimdoni bo'lgan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni puxta egallagan, ulardan o'quv va tarbiyaviy jarayonlarda foydalana oladigan pedagoglar zarurdir.

#### **Adabiyotlar**

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – ёнгилмас куч. – Тошкент.: “Маънавият”, 2008, 176 Б.
  2. Тафаккур дурданалари. 111 Ватандош алломаларимизнинг ҳикматли фикрлари. Тошкент “Янги аср авлоди” 2012. 384 Б.
  3. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1992. –Б.63.
  4. Ишмуҳаммедов Р.Ж., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагогика ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). - Т.: «Истеъод», 2008.
- Джураев Р.Х., Турғунов Т., Назарова Г.М. Педагогика. - Т.: «Илм зиё», 2013.